

“BOBURNOMA”DA TARIXIY SHAXS NOMLARINING QO'LLANISHI

Annotatsiya: Boburiylar sulolasining asoschisi qat'iyatli shoh va iste'dodli shoir, sinchkov olim va yuksak qalb sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur 47 yil davom etgan jang-u jadallarga to'la hayotida ham betakror ilhom og'ushida yashaydi. Bobur kelgusi avlodlarga beqiyos lirik va nasriy asarlarni meros qilib qoldirdi. Xususan, adibning memuar, tarixiy-badiiy “Boburnoma” asari asrlar davomida sharq-u g'arb mutafakkirlarining e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Mazkur maqolada ham “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar nomlarining qo'llanishi xususida kichik izlanish olib borildi.

Kalit so'zlar: nasr, memuar, hukmdor, shoir, ayol, tarixiy nomlar

Annotation: The founder of the Boburiys dynasty, a determined king and a talented poet, an intelligent scholar and a man of great heart Zahiriddin Muhammad Bobur lived a life full of 47 years of wars and unique inspiration. Bobur left a great legacy of poetry and prose to future generations. For example, the author's memoirial, historical and fiction work “Boburnoma” has been attracting the attention of Eastern and Western thinkers for centuries. In this article, a little research has been done on the use of the names of historical figures in the work “Boburnoma”.

Key words: prose, memoirial, ruler, poet, woman, historical names

Zahiriddin Muhammad Bobur shoh va shoir, buyuk so'z san'atkoridir. Bobur mirzo qalami hadya etgan betakror ijod namunalari o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'rin egallaydi. “...U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turadi. Turkiy she'ri Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas. Turkiy tilde benihoya nafis devoni bor. “Mubayyin”

nomli she'riy asar yozgan bo'lib, fiqhga oid bu bag'oyat foydali risola odamlarga maqbuldir. Turkiy aruzga oid asar bitgan bo'lib, hech kim ungacha turkiy aruz haqida bu qadar aniq yozolmagan. Hazrati Eshon Xoja Ubaydullohning "Risolayi volidiyya" asarini nazmga solgan. Uning turkiy tilda "Vaqoe'" ("Boburnoma") nomli tarixiy asari bo'lib, juda jonli, ravon, beg'ubor va tushunishga oson bir tarzda bitilgan. Musiqiy va boshqa san'atlarda ham Boburga teng keladigan odam uning xonadonida undan oldin yuzaga chiqmagan edi. [1. 2002-yil 2-son(gazetadan)]. "Boburnoma" asari tarix, adabiyot, tilshunoslik, geografiya, etnografiya, san'atshunoslik,, nabobot, hayvonot olami haqida o'ta muhim va betakror ma'lumotlar beruvchi ajoyib asardir.

"Boburnoma" undagi tarixiy shaxslarning ko'pligi, sulolalar, saltanatlar taraqqiysi va tanazzulini yorqin namoyon etuvchi badiiy-ilmiiy hujjat, urushlar tarixi, jang qurol-yarog'lari, jangga saf tortish va jang usullari, davlatlararo va shohlararo munosabatlar yilnomasi sifatida qimmatli tarixiy manbadir"[2. ziyouz.com]. Asarda hijriy sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi – to'qqiz yuz o'ttiz oltinchi yillar vaqealari aks ettirilgan bo'lib, asar quyidagicha so'zlar bilan boshlanadi: "Tangri Taolaning inoyati va koinot sarvari bo'lgan hazrat Rasuli akramning shifoati, pokko'ngil chahoryorlarning himmati bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida, sakkiz yuz to'qson to'qqizninchi yili Farg'ona viloyatiga o'n ikki yoshda podshoh bo'ldim"[3. 43-bet] Ko'rinib turganidek, asarning daslabki misralaridayoq tarixiy ma'lumotdan bahramand bo'lish mumkin. "Boburnoma" asarida o'n beshinchi asrning oxiri va o'n oltinchi asrning birinchi yarimlarigacha Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va Afg'onistonda kechgan muhim tarixiy voqealar o'z aksini topgan, bundan tashqari asarda yuzlab tarixiy shaxslarning nomlari, tashqi va ichki dunyosi, xarakter-xususiyatlari haqida ko'plab tarixiy manbalarda ham uchramaydigan muhim va noyob ma'lumotlar mavjud. "Boburnoma" Amir Temur, Shohrux mirzo, Abusaid mirzo, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Xoja Ubaydulloh Ahror, Umarshayx mirzo, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Sulton Mahmudxon, Ahmad Tanbal, Xisravshoh, Zunnun arg'un, Ismoil Safaviy, Shoh

Tahmasp, Abulmakorim, Xoja Mavlonoyi Qozi, Badiuzzamon mirzo, Abdullatif mirzo, Raana Sangaa singari shoh va shahzodalar, amir va beklar, pir-murshidlar haqida muhim tarixiy ma'lumotlarni o'zida aks ettirgani bilan bag'oyat qimmatlidir" [2. ziyouz.com]. Shunga ko'ra, asardagi tarixiy shaxslar nomlarini bir necha guruhlarga bo'lib, o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

I.Hukmdor va amaldorlar nomlari;

II. Shoir va ijodkorlar nomlari;

III. Ayollar nomlari

I. Asarda Bobur mirzoning otasi Umarshayx mirzoning tavalludi va nasabi haqida shunday deyilgan: "Sakkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid mirzoning to'rtinchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulto Abusaid mirzo Sulton Muhammadmirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bila jahongir mirzodin kichik. Shohruh mirzodin ulug' edi" [4. 9-bet]. Muallif Mirzoning fe'l-atvori xususida yozganda, avvalo, uning pokiza iymonli, islom dini sunnatlarini bajo keltirishga intiluvchi inson bo'lgani haqida yozadi: "Hanaviy mazhablik, pokiza e'tiqodlik kishi erdi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi. Hazrat Xoja Ubaydullog'a irodati bor erdi, suhbatlarig'a bisyor musharraf bulub edi. Hazrat Xoja ham farzand deb erdilar"[4. 10-bet] Mirzoning Nizomiy ganjaviy Va Amir Xisrav Dehlaviylarning "Xamsa"larini, Firdavsiyning "Shohnoma" asarlarini ko'p o'qishini, o'zida ham she'riy iste'dod bor, ammo she'r yozishga qunt qilmasligini ta'kidlaydi. Umarshayx mirzoning adolatli hukmdor bo'lganini ko'rsatuvchi bir voqea ham kitobxon e'tiborini tortadi. Unga ko'ra, Xitoydan kelayotgan ming qoramollik karvonni Andijonning sharqiy tarafidagi tog'lar tubida qor bosib, faqat ikki kishi qutulib qoladi. Bundan xabar topgan hukmdor Umarshayx mirzo odamlarini yuborib, karvonning hamma narsalarini yig'diradi va o'sha paytda karvon vorislarining bo'lmagani tufayli ehtiyot yuzasidan saqlab, bir-ikki yil o'tgach, Samarqand va Xurosondan vorislarini toptirib keltirib, mollarni eson-

omon topshiradi. Asarda Umarshayx mirzoning farzandlari ham berilgan va ular haqida shunday yozilgan: “Avlodi: uch o’g’il, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o’glonlardin uluq men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim, mening onam Qutlug’ Nigorxonim edi. Yana bir o’g’ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aningonasi mo’g’ulning tuman beklaridinn edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o’g’ul Nosir mirzo edi, onasi andijonlik edi, g’unchachi edi, Umid otliq. Mendin to’rt yosh kichik edi [4. 11-bet]. Bundan tashqari, muallif otasi Umarshayx mirzoning shakl-shamoyili, jang va urushlari, viloyatlari haqida ham muhim ma’lumotlarni keltiradi. Umarshayx mirzoning amirlari xususida keltirilgan ma’lumotlar ham e’tiborga molikdir. Xususan, Xudoyberdi Temurtosh haqida asarda shunday yoziladi: “Xiriy hokimi Oqbug’abekning og’asining nasildindur. Sulton Abusaid mirzo Jo’gi mirzoni Shohruxiyada qabag’onda, Farg’ona viloyatini Umarshayx mirzog’a berib, eshikni bu Xudoyberdi Temurtoshg’a boshlatib yiborib erdi” [4. 15-bet]. O’sh atroflarida Ibrohim Bekchik bilan bo’lgan urushda Xudoyberdi temurtosh ishtirok etib, shahid bo’ladi. Umarshayx mirzoning yana bir amiri Hofiz Muhammadbek do’ldoydir. U Sulton Malik Koshg’ariyning o’g’li, Ahmad Hojibekning inisi bo’lgan, Xudoyberdi Temurtosh vafotidan so’ng Hofiz Muhammadbek do’ldoy eshik og’a bo’ladi. Yana bir amiri bazmlarda qo’shiqlarni yaxshi aytadigan, odmi Xoja Husaynbek edi. Shayx Mazidbek esa Umarshayx mirzo qoshida eng ulug’ bek bo’lgan.

Asarda Umarshayx mirzoning Qosimbek qavchin Boboquli Bobo Alibek Alido’st tag’oyi, Vays Log’ariy, Mirg’iyos tag’oyi, Ali Darvesh kabi amir va beklarning ismlari zikr etilgandir.

Asarda hukmdorlardan Sulton Ahmad mirzo haqida ham muhim ma’lumotlarni o’qiyimiz. Sulton Ahmad mirzo Sulton Abusaid mirzoning o’g’illaridan eng kattasi. Shakl-shamoyili xususida quyidagi ma’lumotlarni uchratamiz: “Baland bo’yluq, qunqor soqollik, qizil yuzluq, tanbal kishi erdi. Soqoli engagida erdi. Ikki yongoqida soqoli yo’q edi, Bisyor xushmuxovara kishi erdi. Dastorni ul zamon dasturi bila chahorpech chirmab, aloqasini ilgarrak qoshining ustiga qo’yar edi”[4.19-bet]. Muallif Sulton Ahmad Mirzoning hech

narsa o'qimagan savodsiz ekanligini, shaharda ulg'aygan bo'lishiga qaramasdan, to'g'riso'z va soddaligini, iste'doddan bebahra ekanligini, ammo odil kishi ekanligi aytadi. Sulton Ahmad to'rt marta jang qilib, uch marotaba yengan. Mirzoning tasarrufidagi viloyatlari Samarqand va Buxoro, shuningdek, Toshkent, Shohruxiya, Sayram, Xo'jand va O'ratepalarga ham bir muddat hokimlik qilganini bilib olamiz. Mirzoning amir va beklariga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Sulton Ahmad mirzoning amirlaridan Jonibek do'ldoy shunday ta'riflanadi: "G'arib axloq va atvorliq kishi ekan. Andin g'arib nimalar xeyli rivoyat qilurlar. Ul jumladin biri budurkim, Samarqand hokimi ekan fursatlar o'zbekdin elchi kelur, o'zbek ulusida bu elchi zo'rg'a mashhur ekan. O'zbek zo'r kishini bo'ka der emish. Jonibek derkim: "Bo'kamusen? Bo'ka bo'lsang kel kurashaling. Bu elchi har necha muzoyaqa qilur, qo'ymas, kurashurlar, Jonibek yiqar. Mardona kishi erdi" [4. 21-bet]. Sulton Ahmad mirzo qoshidagi mo'tabar hisoblangan bek Darvesh Muhammad tarxon, yana biri zolim, fosiq, dimog'dor va qattiqqo'l deya ta'riflangan bek Abdulali tarxon edi. Sulton Ahmad mirzoning Sayyid Yusuf, Darveshbek, Muhammad Mazid, Boqi tarxon, Qulmuhammad Bug'do qavchin, Abdulkarim Ashrit uyg'ur kabi beklari nasabi va xususiyatlari bilan tilga olingan. Bobur mirzo uquvli va tadbirli bek Muhammad Mazid tarxonga Samarqandni ikkinchi va uchuncha marta olgan paytlarida o'zi ham yaxshi e'tibor ko'rsatganini yozadi.

Yana bir hukmdor Abusaid mirzoning uchinchi o'g'li, Sulton Ahmad mirzoning tug'ishgani Sulton Mahmud mirzodir. Sulton Mahmud past bo'yli, siyrak soqolli, semiz, kamhafsalaroq kishi deya ta'riflanadi. Mirzoning fe'l-atvori haqida yoza turib namozni kanda qilmasligini, tartib va boshqarish qobiliyati juda yaxshi ekanligini, hisob ilmuni puxta bilishini ta'kidlaydi. Nazmiy iste'dodi haqida esa quyidagilarni yozadi: "Tab'i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmog'on yaxshiroqdir" [4. 26-bet]. Bobur uning yomon e'tiqodli kishi bo'lib, atrofida bir necha maynavoz va beboklar yig'ilganini, devon va xaloyiq qoshida yomon va xunuk harakatlar qilishini aytadi. Sulton Mahmud ikki marta saf tortib jang qilgan. Har ikkalasida

ham Sulton Husayn Boyqaro bilan to'qnashib, ikki marta ham yengiladi. "Boburnoma"da Sulton Mahmudning avlodlari haqida shunday yozilgan: " Besh o'g'ul, o'n bir qiz edi. Bori o'g'lonlaridan ulug' Sulton Ma'sud mirzo edi. Onasi Mir Buzurg Termiziyning qizi edi. Yana bir o'g'ul Boysung'ar mirzo edi. Onasi Pashabegim edi. Yana bir o'g'ul Sulton Ali mirzo edi. Onasi Zuhrabegi og'a edi, o'zbek edi, g'uma edi. Yana bir o'g'ul Sulton Husayn mirzo edi. Onasi Xonzodabegim, Mir Buzurgning nabirasi edi. Mirzo hayotida o'n uch yoshida Tengri rahmatig'a bordi. Yana bir o'g'ul Sulton Vays mirzo edi. Onasi Yunusxonning qizi, mening onamning singili Sulton Nigorxonim edi" [4. 27-bet]. "Boburnoma" da Sulton Mahmudning umarolaridan turkistonlik qipchoqlardan Xisravshoh, Balx darvozasida hazoralar bilan urushda Sulton Abusaid mirzo oldida bahs boylashib, musht jangiga kirgan Pirmuhammad elchi Bo'g'a qavchin, Sulton Ma'sud mirzoning ko'ziga mil tortilishiga va Boysunqar mirzoning o'ldirilishiga sababchi bo'lgan Valibek, yana Mahmud barlos va Shayx Abdullo barloslar haqida to'xtaladi.

Bobur mirzo Sulton Mahmudning ikkinchi o'g'li Boysunqar mirzo to'g'risida ham anchayin mufassal ma'lumotlarni yozadi: "Ulug' ko'zlik, qo'ba yuzluk, o'rta bo'yliq, turkman chehralik, malohaatliq yigit edi. Adolatpesha va odmi va xushtab' va fazilatliq podshohzoda edi" [4. 63-bet]. Boburning yozishicha, Boysunqar mirzo ikki marta saf tortib, jang qilgan. Bir marta Sulton Mahmudxon bilan urushib, uch-to'rt ming mo'g'ulning boshini kesadi. Yana bir marotaba Buxoroda Sultonali mirzo bilan urushib mag'lub bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida Xuroson hukmdori Husaym Boyqaro haqida hurmat bilan yozadi: "Shujo' va mardona kishi edi. Borlar o'zi qilich tegurubtur, balki har ma'arakada borlar qilich tegurubtur. Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay. Tab'i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi " Husayniy" edi. Ba'zi baytlari yomon emastur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur" [4. 147-148-betlar]. Bobur Husayn mirzoning zamonini bir ajoyib zamon edi deb baholaydi. Muallif Sulton Husaynning kichiklardek qo'chqor

saqlab, kbutar saqlab, kabutarbozlik qilish, xo'roz urushtirish kabi qiziq odatlari borligini ham aytadi. Husayn mirzoda o'n to'rt og'il, o'n bir qiz qolgan bo'lib, o'g'illarining kattasi Badiuzzamon mirzo edi. Yana Shoh G'arib mirzo (otasi zamonidayoq qazo qiladi), Muzaffar mirzo, Abulmuhsin mirzo, Kepak mirzo, Abuturob mirzo, Muhammad Husayn mirzo, Faridun Husayn mirzo, Haydar mirzo, Muhammad Ma'sum mirzo, Farrux Husayn mirzo, Ibrohim Husayn mirzo, Ibni Husayn mirzo kabi og'illari va ularning fe'l-atvori va boshqa xususiyatlari haqida ham yozadi. "Boburnoma" da Husayn Boyqaroning amir-u beklaridan Muhammad Burunduq barlos, Muzaffar barlos, Ahmad Tavakkul, Alisherbek Navoiy, Hasan Shayx Temur, Nuyonbek, jahongir barlos, Ahmad Ali Forsiy, Abduxoliqbek, Ibrohim do'ldoy, Zunnun arg'unlarni tavsiflaydi. Ular orasida Alisher navoiyni alohida muhabbat va hurmat bilan tilga oladi: "Begi emas, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar... Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay" [4. 154-bet].

Bobur mirzo bobosi Yunusxonga ham alohida to'xtalib, ul zotning Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy naslidan ekanligini ta'kidlaydi va Chingizxongacha bo'lgan shajarasini sanaydi: "Yunusxon ibn Uvaysxon ibn Sherali o'g'lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn Tug'luq temurxon ibn Esan Bo'g'axon ibn Do'vaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mutugon ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon"[4. 12-bet].

II. "Boburnoma" asarida hukmdor va amldorlar, amir-u beklar nomlari bilan birga ko'plab shoir-u ijodkorlar haqida ham yozilgandir. "Boburnoma" da ellikka yaqin shoirning ismi sharifi aytilib, ularning asarlari tahlil etilgan yoki baho berilgan"[2. ziyouz.com]. Jumladan, Alisher Navoiy, Kamoliddin Binoyi, Abdurahmon Jomiy, Badriddin Hiloliy, Vafoiy, Husayn Gozurgohiy, Muhammad Solih, Hasan Ya'qub, Abdullo Hotifiy, Mir Murtoz, Amir Shayxim Suhayliy, Xondamir, Asiridin Axsikatiy, Bayramxon, Ahmad Hojibek, Mir Husayn Muammoiy va boshqa ko'plab turkigo'y va forsigo'y ijodkorlarning nomlari zikr etilib, asarlaridan parchalar keltiriladi.

“Vafoiy” taxallusi bilan Ahmad Hojibek Sulton Ahmad mirzo qo’lida xizmat qilar edi. Devon ham tartib bergan bu xushtab ijodkorning shunday forsiy bayti keltiriladi:

Mastam, ey muhtasib, imro’z zi man dast bidor,

Ihtisobam bikun on ro’z ki yobi hushyor [4. 22-bet]

(Mazmuni: Qilma bezovta meni, ey muhtasib mast, mastman bugun,

Istagancha qil so’roq topgan kuning hushyor meni.) [3. 58-bet]

Bolatabiat, iste’dodli, chechan, samimiy bek Hasan Ya’qubning ham forsiy tilida yozgan bir bayti keltiriladi:

Bozo oy, ey humoyki, beto’tii xatat,

Nazdik shud ki, zog’ barad ustuxoni man [4. 16-bet]

(Mazmuni: Qaytib kelgil, ey Humoy, to’tirang patlaringsiz,

Sal bo’lmasa suyagimni qarg’a olib ketgusi). [3. 52-bet]

Bobur mirzo Mullo Binoyi haqida quyidagicha yozadi: “ Doim qasida va g’azal o’tkarur edi. Navoda bir amal mening oting’a bog’lab o’tkardi. O’shul asnoda bir ruboiy aytib o’tkardi:

Ne g’alla maro kazu tavonam no’shid,

Ne muhmali g’alla to tavonam po’shid.

Onro kin a xo’rdanasatu ne po’shidan,

Dar ilm-u hunar kujo tavonad ko’shid [4. 78-bet]

(Mazmuni: Yeb-ichgani menda na non, g’allam bordir,

Pulsizlikdan na kiyim, na sallam bordir.

Yeb-ichgani va kiygani narsam yo’g’-u,

Qanday deyman: ilhom to’la kallam bordir?) [3. 106-bet]

Bobur mirzo shu o’rinda Shahrizabzdan Samarqandga kelgan shoir Xoja Abulbaraka Firoqiyning bir turkiy ruboiysini ham keltiradi:

Bu javrki qildi davr so’rulg’usdur,

Sultoni karam bu uzrni qo’lg’usidur.

To’kulgan agarchi to’lmasa, ey soqiy,

To’kulgonimiz bu davrada to’lg’usidur [4. 79-bet]

Bobur va uning odamlari Hubyon dovoniga ko'tarilib, Suhayl yulduzini ko'rishadi. Shunda Boqi Chag'oniyoniy quyidagi baytni o'qiydi:

Tu Suhayli, to kujo tobi-yu kujo tali' shavi,

Chashmi tu bar har ki meaftad nishoni davlat ast [4. 114-bet]

(Mazmuni: Sen Suhaylsen, qayda balqib, qayda porlaysan ekan,

Ko'zlaring har kimga tushsa, bo'ldi davlatdan nishon.) [3. 136-bet]

Bobur Shayxim Suhayliy haqida shunday yozadi: "Bir tavr she'r aytur edi. Qo'rqqudek alfoz va maoniy darj qilur edi. Aning abyotidin bir budur:

Shabi g'am girdbodi oham az jo burd gardunro,

Furo' burd ajdahoi aham az jo burd gardunro" [4. 156-bet]

(Mazmuni: G'am kechasi ohimning quyuni osmonni o'rnidan qo'zg'atdi,

Ko'z yoshim selining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi) [3.176-bet]

Yana bir ijodkor Sulton Husaynning ikkinchi og'li "Garibiy" taxallusi bilan ijod qiluvchi Shoh G'arib mirzo edi. Turkiy va forsiyda she'rlar yozardi. Ushbu bayt unikidir:

Darguzar didam pariyo'ye shudam davonaash,

Chist nomi o', kujo boshad nadonam xonaash [4. 149-bet]

(Mazmuni: Guzarda pari yuzni ko'rib devona bo'ldim,

Uning ismi nima, uyi qayerda ekanini bilmadim.) [3. 169-bet]

"Boburnoma" asarida ko'plab shoirlar ichida yana bir ulug' shoir Alisher Navoiyga alohida to'xtalib o'tiladi: "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana bir "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq..."[4. 153-bet]

III. "Boburnoma" asarida tarixiy ayollar nomlarining keltirilishi ham alohida o'rin tutadi. Muallif otasining xotin va kanizlari, qizlarini tilga oladi. Xususan, o'zining onasi – Qutluq Nigorxonim. U Yunusxonning ikkinchi qizi Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi edi. Bobur buvisi –Eson Davlatbegim hamda xolalari –Mehr Nigorxonim va Xub Nigorxonimlar haqida ham yozadi. "Xonning bu Esan Davlatbegimdan uch qizi bo'ldi. Boridan ulug' Mehr Nigorxonim edikim,

Sulton Abusaid mirzo ulug' o'g'li Sulton Ahmad mirzog'a qo'lub erdi... Ikkinchisi mening volidam Qutlug' Nigorxonim edi...Uchunchi qiz Xo'b Nigorxonim edi, Muhammad Husayn Ko'ragon dug'latka berib edilar, bir qizi, bir o'g'li bo'lib erdi". [4. 13-bet] Shuningdek, Yunusxonning onasi esa sohibqiron Amir Temur qadrlagan turkistonlik qipchoq beklaridan Shayx Nuriddinbekning qizi yoki nevarasi bo'lishini ham ta'kidlaydi. Xonning yana bir xotini Badaxshon shohi Shoh Sultonmuhammadning qizi Shohbegim edi, yana biri mo'gul tuman beklari avlodidan Fotima sulton og'a bo'lgan. Mirzoning qizlari haqida Bobur mirzo shunday yozadi: Bori qizlaridin ulug' Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug' erdi. Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi, mendin ikki yosh ulug' erdi. Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi, bu dag'i Nosir mirzo bila bir tuqg'on erdi, mendin sekkiz yosh kichik edi. Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og'a sulton otliq g'unchachi edi. Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi, onasi Mahdum Sultonbegim edi. Qorako'zbekim derlar edi, ikkalasi mirzoning Favtidan so'ng bo'ldilar". [4.11-12-betlar]

Bundan tashqari, "Boburnoma" asarida Poshobegim, Sulton Nigorxonim, Zuhrabegim og'a, Bikabegim, Poyanda sultonbegim, Oqbegim, Zaynab sultonbegim, Maxduma sultonbegim, Latifbegim, Habiba sultonbegim, Robiya sultonbegim (Qorako'zbekim), Soliha sultonbegim, oysha sultonbegim, Sultonbegim, Ma'suma Sultonbegim, Fotima sultonbegim, Bayram sulton, Begimsulton, Zubayda og'a, Shahribonu begim, Xadichabegim, Opoqbegim, Begisulton og'acha va boshqa ko'plab tarixiy ayollar nomlari, ularning nasl-nasabi va fe'l-atvori haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Shunday qilib, shoir o'z xotiralarini badiiy uslubda sodda va ravon bayon etadi. O'nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tilga olingan shaxslarning portreti kiyinishini, tashqi ko'rinishini, fe'l atvorini, odatlari, o'tmishi, avlod-ajdodi, birma bir ta'rif etiladi. Ushbu maqolada asosan Bobur mirzoga yaqin bo'lgan tarixiy shaxslar obraziga to'xtalib o'tildi. Shuning o'zi han Bobur mirzoning naqadar qobiliyatli nosir, kuchli xotira va yuksak qalb egasi bo'lganini ko'rsatadi. Garchi Boburning jang-u jadallarga to'la to'xtovsiz sinovlar,

Vatandan yiroqda, Vatanni qo'rsab o'tgazgan kunlari olis tarixda qolgan bo'lsa-
da, ularning shiddati, nafasi "Boburnoma" asari tufayli bizga hamisha hamroh!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mirzo Muhammad Haydar. Bobur Podshoh ("Tarixi Rashidiy"dan) //O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2002 yil 8-soni.
- 2.Vahob Rahmonov. "Boburshoh: shoir va adib"//ziyouz.com
- 3.Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma"- T.: 2017. –B. 43
- 4.Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma".-T.:1990. –B. 9,11,12,13
- 5.Xayriddin Sultonov. "Boburiynoma".T.Sharq.1997.
- 6.Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar".T. Yoshlar nashriyat uyi.2018